**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH QO‘MITASI**

**QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ EKOLOGIYA HÁM QORSHAǴAN ORTALÍQTÍ QORǴAW KOMITETI**

230100 Nókís qalası, Tań nurı №181-jay Tel: (361) 224-08-77, Faks: 224-19-51
el pochta: nukus@uznature.uz; rktabiat@exat.uz

2023 -jıl "28"-aprel №01-02/18-13-1126 Nókis qalası

**O‘zbekiston Respublikasi**
**Tabiat resurslari vazirligiga**

**2023-yil 13-martdagi 03-03/2-33-sonli xatingizga**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 29-dekabrdagi 2816-4/KQ-447-4-sonli Qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan BMT Bosh assambleyasining 2022-yil 14-dekabrdagi «Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi rezolyusiyasida belgilangan vazifalarni 2023-2024-yillarda amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»ning 48-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida ekologik barqarorlikni oshirishga oid takliflarni taqdim etadi.

ilova 6 varaq

**Rais** **M. Djumaniyazov**

Bajaruvchi: G. Uralbayeva
tel: (97) 348-54-09

*Ilova 2*

**2-jadval.** O‘zbekiston Respublikasida barqaror ekologik vaziyatni saqlash va ekologik fojialarning oldini olishga qaratilgan 2024-2026-yillarda amalga oshiriladigan Dasturning loyihasi

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul ijrochilar (vazirlik va idoralar) | Kutilayotgan natijalar (aniq erishiladigan ko‘rsatkichlar kiritilishi lozim) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **I. Yer resurslari va yer osti boyliklarini muhofaza qilish bo‘yicha** | | | | | | |
| 1. | Buzilgan yerlarni qayta tiklash va rekultivatsiya qilish | Yer qa’ri uchastkalaridan foydalanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish bo‘yicha chora tadbirlar ishlab chiqish;<br>hududlar va korxonalar kesimida rekultivatsiya ishlarini moliyaviy manbalarini aniqlash, buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish hamda ularning o‘tgan yillarga nisbatan qo‘shimcha 5 foizi tiklanishini ta’minlash | Har yili reja asosida | Xo‘jalik yurituvchi subyektlar mablag‘lari | Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Davlat ekologiya qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, Xo‘jalik yurituvchi subyektlar | Atrof muhitni muhofaza qilishga, shuningdek yer qa’ridan foydalanishda ishtan chiqqan yer uchastkalarini va boshqa tabiiy ob’yektlarni keyinchalik foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish maqsadga muvofiq bo’ladi. |
| … | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **II.Suv resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha** | | | | | | |
| 1 | Nukus shahar va Taxiatash tumanidagi sanoat hududidagi "Qoraqalpoq suv ta’minoti" MChJ ga tegishli bo‘lgan oqova suvlarni uzatish tozalash inshooti tozalash samaradorligi pasayib ketganligi natijasida to‘liq tozalanmasdan ochiq suv havzalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashlanmoqda. | Nukus shahar va Taxiatash tumanidagi sanoat hududidagi "Qoraqalpoq suv ta’minoti" MChJ ga tegishli bo‘lgan oqova suvlarni uzatish tozalash inshooti tozalash samaradorligi pasayib ketganligi natijasida to‘liq tozalanmasdan ochiq suv havzalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashlanmoqda. | 2024-2025 yillar | Jahon banki krediti asosida Respublika byudjetidan | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi "Qoraqalpoq suv ta’minoti" MChJ Sanoat korxonalari | Oqova suv tozalash inshootlarini modernizatsiyalash va natiyjada ochiq suv havzalari va yerlarni ifloslanishini hamda flora va faunalarga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararlarni oldi olinadi. |
| | | | | | | |
| **III.Atmosfera havosini muhofaza qilish bo‘yicha** | | | | | | |
| 1 | Atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarning meyordan ortiq miqdori va ularning ekologiyaga tasirini baholash natijalari buyicha tashlamalarni kamaytirish maqsadida korxonalardagi samardorligi past bulgan chang-gaz tozalash | Atmosferaga tashlamalarni kamaytirish maqsadida Qoraqalpoǵiston Respublikasi “Karakalpak sement” MChJ va “TITAN CEMENT” MChJ qushma korxonalari ; | 2024-2025 yillar | Korxonalar hisobidan | Sanoat korxonalari, Qoraqalpoǵiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Davlat ekologiya qumitasi | Karxonalardagi atmosfera xavosiga tashlanaligan ifloslantiruvchi moddalarnin kamayishiga erishiladi |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | uskunalarining ishlash samaradorligini oshirish | | | | | |
| **IV.Biologik resurslarni muhofaza qilish va qayta tiklash bo‘yicha** | | | | | | |
| 1 | “Sudoche-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonasining Sudoche ko‘llar tizimi uchastkasidagi Sudoche ko‘liga keyingi ikki yilda umuman suv tushmaganligi sababli suvi kamayib, suvining sho‘rlanishi ortmoqda. Bu o‘z navbatida buyurma qo‘riqxonannig bioxilmaxilligiga xavf tug‘dirmoqda. | “Sudoche-Akpetki” davlat buyurtma qo‘riqxonasini ekotizimining barqarorligini va sanitar holatini saqlash maqsadida uning asosiy qismiga Amudaryo daryosidan kerakli miqdorda suv tashlab turilishini ta’minlash. | Har yili | Mahalliy byudjet manbalari | Qishloq xo‘jaligi azirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi | Sudoche ko‘lida bioxilmaxillikning saqlab qolinishiga erishiladi. Jumladan, mazkur obyekt tipik delta ko‘li hisoblanadi. Ko‘l akvatoriyasi va uni g‘arbidagi Ustyurt platosi chinki hududning yuqori biologik xilma-xilligini belgilaydi va betakror go‘zalligini ta’minlaydi. Sudoche ko‘li va unga tutash tekisliklarni saqlash cho‘llanib borayotgan hozirgi Amudaryo deltasi hududida landshaft xilmaxillikni saqlashga yordam beradi. Hududda tabiiy faunistik komplekslarga xos suv-botqoq hududlar va cho‘l uchastkalardan iborat 2 ta asosiy ekotizim turi mavjud. Mazkur hudud Ustyurt platosiga tutash bo‘lgan katta sayoz chuchuk va sho‘r ko‘llarni, qalin qamishzorlar va butazorlarni, sho‘rlangan yerlarni, botqoq uchastkalar, |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | ekilgan saksovullar, kanallar, chink jarliklaridagi cho‘llar va yarim cho‘llardan iborat bo‘lib o‘ziga xos o‘simlikliklar o‘sadigan va hayvonolar yashaydigan muhit hisoblanadi. Bu yerda 117 tur qushlar in qo‘yadi. Hudud global xavf ostida bo‘lgan ko‘chib yuruvchi qush turlariga uya qurish va to‘planishi uchun muhim joy bo‘lib xizmat qiladi. Katta masofalarga ko‘chib yuruvchi suvda suzuvchi qushlarning bu yerdagi to‘planishi ayrim yillari 86 mingdan ortiqni tashkil qiladi. Ko‘lda va Ustyurt platosi chinkida yashaydigan qushlardan O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga va Halqaro Qizil ro‘yxatlarga kiritilganlari ham bir qanchani tashkil etadi. |
| **V.Chiqindilar bilan bog‘liq ishlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha** | | | | | | |
| | Respublika hududida hosil bo‘lyotgan chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha davlat tashkiloti mavjud bo‘lmaganligi | Respublika hududida maishiy chiqindilarni qayta ishlash bilan shug‘ublanvchi | 2024-2025 yillar | Respublika byudjetidan | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi | -hududlarda hosil bo‘layotgan chiqindilarning hisob-kitobi yuritiladi;<br>-aholi tomonidan chiqindilarni saralash yig‘ish |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | sababli chiqindilarni qayta ishlash darajasi juda past. | xususiy korxonalar mavjud bo‘lsada, loyihaviy quvvati o‘rtacha hisobda 300 t/sek tashkil etmoqda. Bu holat esa o‘z navbatida hosil bo‘lgan maishiy chiqindilarga taqqoslanganda 0,78 foizni tashkil etmoqda. Maishiy chiqindilarni qayta ishlashni oshirish va sohada takomillashtirish ishlarni olib borish uchun davlat ishtirokidagi chiqindilarni qayta ishlash zavodini tashkil etish lozim. | | | | tizimi yo‘lgan qo‘yiladi;<br>-chiqindilardan arzon bahoda uy rozg‘or buyimlari ishlab chiqariladi;<br>-yiliga o‘rtacha hisobda 100 ming tonna chiqindilarni qayta ishlashga erishiladi. |
| **VI.Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish** | | | | | | |
| | | | | | | |
| **VII. Respublikada cho‘llanishni oldini olish va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha** | | | | | | |
| 1 | Bo‘limni mobil laboratorya va portativ o‘lchov vositalari bilan ta‘minlash | Hududdagi ekologik vaziyatni o‘z vaqtida, sifatli aniqlash (atmosfera havosi, suv va tuproqdan namunalar olish va tahlil qilish) ushun | 2024-yil | Respublika byudjetidan | O‘zbekiston Respublikasi Tabiyat Resurslari vazirligi | Atrof muhitning ifloslanishining oldi olinadi |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | bo‘limni mobil laboratorya va portativniy olchov vositalari bilan ta‘minlash | | | | |
| 2 | Sanoat korxonalarining atmosfera havosi, tuproq, er usti suvlarini ifloslantiruvchi manbalari davlat ekologik monitoringini O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha vakolatli organni xabardor qilmasdan va kelishmasdan to‘siqsiz amalga oshirish | Sanoat korxonalarining atmosfera havosi, tuproq, er usti suvlarini ifloslantiruvchi manbalari davlat ekologik monitoringini O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha vakolatli organni xabardor qilmasdan va kelishmasdan to‘siqsiz amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish | 2023-yil | | O‘zbekiston Respublikasi Tabiyat Resurslari vazirligi | Korxonalardagi atrof muhitning ifloslantiruvchi manbalaridan chiqadigan moddalar miqdori doymiy nazoratga olinadi |

| | |
|---|---|
| Yig‘ma Axborot taxlil bo‘limi boshlig‘i: | B. Ibragimov |
| Suv, Er resurslari va er osti boyliklarini muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i: | I.Abduxalikov |
| Atmosfera havosini muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i: | A.Ziyapatov |
| Bioxilmaxillikni asrash raxamlashtirish va kadastrini yuritish bo‘limi boshlig‘i: | T.To‘reniyazov |
| Chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish bo‘limi boshlig‘i: | R.Sherbekov |
| Atrof muhitning ifloslanishini monitoring bo‘limi boshlig‘i: | G.Uralbaeva |